

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.A.Abdualiyeva	
Markaziy Osiyo o'rtta paleolit manzilgohlarining fanda o'rganilishi tarixi (I qism)	654
A.A.Nishonov	
Farg'ona vodiysida Sevinchxojaxon va Sulton Saidxon kurashi	664
A.A.Aloxunov, B.B.Jo'raqulov	
Tunkat tarixi yozma va arxeologik manbalarda	673
A.A.Nishonov	
Sevinchxojaxon xonadoni tarixi manbalarda yoritilishi	677
R.X.Akbarov	
Turkiston yevropalik aholi vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	681
R.X.Akbarov	
Turkiston mahalliy vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	685
S.V.Yo'ldoshev	
Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari va lokal xususiyatlari	691
A.M.Maxmudov	
XX asrning 20-30 yillarda Buxoro amirligi muhojirlari taqdiri	695
A.M.Maxmudov	
Usmon Xo'ja avlodlari qayerda?	698

ADABIYOTSHUNOSLIK

K.A.Topvoldiyev	
Use of antonyms in Russian fiction and in religious self-consciousness	701
H.K.Sabirov	
Средняя Азия в путевых заметках Ф.С.Ефремова	706
A.P.Kosimov	
Конвергенции наследия Т.Муро́да с духовным богатством национальной и мировой культуры	710
H.A.Jo'rayev, Y.I.Nishanov	
Yusuf qissasi syujetining sayyorlik omillari	715
H.M.Karimova	
Отражение времени: концепция исторического романа в литературе	718
Y.I.Nishanov	
Umuminsoniy g'oyalar ifodasida ijodiy ta'sirning o'rni	722
I.H.Doroina	
«Отражение современных социальных реалий в современной Русской литературе»	726
Э.Ф.Гиздулин	
Мотив пандемии в художественной постапокалиптической фантастике	729
X.Sharifiddinov	
Zamon qiyofalangan tarixiy roman	732
E.Ibragimova, N.Sharafutdinova	
Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar	735
G.V.Abdullayeva	
Lof she'rlar poetikasi va badiiy-estetik funksiyasi	738
S.A.Xodjayev, Ch.I.Turg'unova	
O'zbek va jahon folklori namunalarida uchlik va beshlik timsollarining poetik kombinatsiyalari	745
X.A.Abdulxamidova, D.U.Jamoliddinova	
Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning badiiy ifodalanishi	749
X.J.Jamolova	
Zullisonaynlik an'anasi va ijodiy ta'sir masalalari	752
M.M.Xamidov	
O'zbek tarixiy romanlarida qahramon talqini masalasiga doir	755
R.M.Umurzakov	
Bola obrazining nazariy muammolari	761
J.B.Sayidolimov	
"Vasiyatnoma" – kichik agiografik asar	765



UO'K: 821,512,133,81

O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA QAHRAMON TALQINI MASALASIGA DOIR

К ВОПРОСУ О ТОЛКОВАНИИ ГЕРОЯ В УЗБЕКСКИХ ИСТОРИЧЕСКИХ РОМАНАХ

ON THE QUESTION OF THE INTERPRETATION OF THE HERO IN UZBEK HISTORICAL NOVELS

Xamidov Mirolimbek Mansur o'g'li 

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Annotatsiya

Maqolada XX asrning 80-yillaridan boshlab o'zbek adabiyotida Boborahim Mashrab obrazini yaratilishi va unga bag'ishlangan romanlarda shoir yashab o'tgan doig'ali hayot yo'lining badiiy talqinlari, yozuvchilarning mazkur masalaga yondoshishdagi uslublari talqin etilgan. Shu bilan birgalikda o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab o'zbek romanchiligida Mashrab obrazini yaratishga urinishlar, xalqning mehru muhabbatiga sazovor bo'lib, uning rivoyat-u hikoyatlarida, afsona va qissalarida talqinini topgan ushbu tarixiy siymo qiyofasini bor murakkabliklari bilan xolis va haqqoniy aks ettira bilish ijodkordan yuksak mahorat bilan birga chuqur bilimni ham talab etishi masalalari misollar asosida tahlil qilingan.

Аннотация

В статье представлены художественные интерпретации образа Боборахима Машраба в узбекской литературе с 80-х годов XX века и жизненного пути поэта в романах, посвященных ему, а также подходы писателей к этому вопросу. Вместе с тем, начиная с 80-х годов прошлого века попытки создать образ Машраба в узбекском романе, завоевав любовь народа, требуют от создателя не только высокого мастерства, но и глубоких знаний, умения объективно и правдиво отразить образ этого исторического персонажа, нашедшего свое толкование в его повествованиях, легендах и рассказах.

Annotation

The article presents artistic interpretations of the image of Boborakhim Mashrab in Uzbek literature since the 80s of the XX century and the poet's life path in novels dedicated to him, as well as the writers' approaches to this issue. At the same time, since the 80s of the last century, attempts to create the image of Mashrab in an Uzbek novel, having won the love of the people, require from the creator not only high skill, but also deep knowledge, the ability to objectively and truthfully reflect the image of this historical character, which found its interpretation in his narratives, legends and stories.

Kalit so'zlar: o'zbek romanchiligi, obraz, tarixiy haqiqat, badiiy to'qima, badiiy mahorat, janr, xarakterlar talqini, peyzaj, timsol yaratish muammosi.

Ключевые слова: узбекская романистика, образ, историческая реальность, художественная фактура, художественное мастерство, жанр, интерпретация характеров, пейзаж, проблема создания образов.

Key words: uzbek romanticism, image, historical reality, artistic texture, artistic skill, genre, interpretation of characters, landscape, the problem of creating images.

KIRISH

O'zbek tarixiy romanlarida biri Hamid G'ulomning "Sharq yuduzi" jurnalining 1981-yil 1-, 2-, 3-sonlarida bosilgan "Mashrab" romani ilk bora ushbu janr talablari asosida yaratilganligi bilan harakterlidir. Mazkur roman Mashrabning qirq yildan ortiq davrdagi hayoti – ya'ni 15-16 yoshdan to Mahmud Qatag'on tomonidan Balxda dorga tortilgandagi dolg'ali voqealar qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Asarda ba'zi bir tarixiy shaxslarga, diniy qarashlarga yondashuvda, boy tabaqa vakillariga bo'lgan munosabatlarda sho'ro davri siyosatining ta'siri yaqqol sezilib tursa-da, Mashrab va uning davrini keng ko'lamda aks ettirgan ilk asar sifatida e'tiborga molikdir.

Adabiyotshunos A.Sabirdinovning Oybek she'riyatida Mashrab obrazi talqini haqidagi "Satriar davomida Mashrabning tashqi qiyofasi uning ruhiyatiga xos xususiyatlar bilan uyg'unlashgan holda aks etadi. Uning turli tabaqa vakillariga munosabati tasvirida xarakteriga xos qirralar namoyon bo'ladi" [4,10] degan so'zlarini o'zbek tarixiy romanlaridagi talqinlarga ham qo'llash mumkin.

Shuhratning "Mashrab" nomli romanida [1] o'spirin, 17-18 yoshlardagi Boborahimning Namanganda mulla Bozor Oxund qo'lida tahsil olayotgan yillardagi voqealar tasviri o'rin olgan. Asar voqealari bahor tasviri bilan boshlanadi: "Bahor nafasi qayta boshlabdi. Ammo saraton yallig'i hali olisda. Qamish bo'g'otlarga bahor ko'rkini baxsh etgan ko'katlar orasida ungan munchoqko'z sariq gullar va lolaqizg'aldoqlar qoramtir tortib, yal-yal yongan gullarni to'kkanlar. Bolalarning cho'ntagida hovuch-hovuch g'o'ra, tishi yo'q keksalar og'zining suvini keltirib, kasir-kasir chaynaydilar. Barra o'tu turli-tuman gulchechagini ko'z-ko'z qilmagan bog'u xiyobon yo'q" [1,600]. So'ng esa davr manzarasini boshqa personajlar – kishilar qiyofalari tasviri bilan uyg'un aks eta boradi. Yozuvchi mahorati shundaki, Mashrab obrazi bilan bog'liq bo'lgan syujetga o'quvchini asta-sekinlik bilan olib kiradi: "Bu paytda jajji shahar Namanganning tili chuchuk qizlari-ku, juda ochilib ketadilar. Qirq kokil qilib soch o'rishu satang qilib farq ochishni o'shalarga chiqargan! Xipcha bellarni yanada xipcha va nozik qilib chiqqan beqasam nimchalar ularni sambitqomat qilib yuboradi. Ularning bu paytdagi yurish-turishlari va gap-so'zlarida o'zgacha bir latofat va nazokat bor. Tolzoru olmazor, anjirzoru anorzorlardan yangragan, zavq-shavqqa to'lib-toshgan ashulayu yallalar bahor nafasini gurkiratib, olis-olis umid manzillariga chorlaydi. Kampirlar yoshligini qo'msab, dimog'iga yalpiz tutsa, chollar nevarasiga yasab bergan varraklarini uchishini hassaga engagini tirab tomosha qiladilar. Faqat dala boshida dehqonning ishi jadal. Ayni tut pishig'i" [1,600]. Ana shu tariqa romanda Namanganning may oyidagi manzaralari, kishilari qiyofasi – mahalliy kolarit ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Jildini bo'yniga osib tahsildan qaytayotgan Mashrab tut qoqayotgan qizlarga duch keladi. Tasodifan tutning tepasida turgan Arzigulga ko'zi tushadi. 17-18 yosh – balog'at pallasidagi o'spirin Mashrabda ilk muhabbat paydo bo'ladi. Asarda ilk sevgiga oshno Mashrab kechinmalari batafsil yoritilgan. Sevgi bilan sarmast Mashrabga olma go'zal ko'rinadi. Yozuvchining badiiy detallardan foydalanib salmoqli fikr ifodalash mahorati quyidagi tavirda ko'zga tashlanadi: "Birdan qo'shni tomga nazari tushib (Mashrab nazarda tutilmoqda – M.X.), qalin qamish bo'g'otning shundoqqina chetida nimjongina bo'lib, soyada ochilgandek bir juft lolaqizg'aldoqni ko'rdi. Nimaga uni shu kungacha ko'rmagan ekan? Bugun ochildimi? Bugun ochilsa, ikkalasi birdan barobar ochildimi? Qiziq! Uning nazarida nozik lolaqizg'aldoq o'zi bilan Arzigul bo'lib ketdi. "Buncha tomning qaltis yerida unmasa!" – xayolida charx urib o'tdi. Ko'ngli xira tortgandek bo'ldi. Lekin boshqa bir hayajonli tuyg'u, yangigina bitgan g'azal gashti va Arzigulning xayoli bu xiralikni o'z o'pqoniga tortib ketdi. Yana ko'ngli yorishdi. Kechga yaqin lolaqizg'aldoqqa ko'zi tushganda yana ko'ngli bir g'alati bo'lib ketdi, xayoli chuvaldi" [1,607]. Muallif ushbu tasvirdagi tomning qaltis yerida ungan lolaqizg'aldoq tafsili orqali Arzigul bilan bog'liq bo'lib o'tadigan judolikka ishora qilayotgandek bo'ladi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Tarixiy romanlarda Mashrabning to'g'riso'z, halol bo'lib o'sishida oilaviy muhit – uning otasi kosib Valiboboning qattiqqo'llik bilan bergan tarbiyasi natijasi ekani Shuhratning "Mashrab" romanining "Bolalik" deb nomlangan faslida tasvirlangan. Ayniqsa, tanga voqeasi buning dalilidir. Shuningdek, Mashrabning kitob o'qishga bo'lgan havasi bolaligidan yuqori bo'lganligi, otasi yasab bergan varrakka qiziqmaganligi voqeasida yoritilgan. Ota nihoyat o'g'li Mashrabni Namanganning taniqli, katta domlasi Mulla Bozor Oxund maktabiga olib boradi. Domlaga o'g'lining ismi Boborahim, ikkinchi nomi Mashrab ekanini, onasining qornidayoq gapirgani uchun shunday atashlarini aytadi. Taniqli adabiyotshunos B.Do'sqorayev "Mashrab" taxallusiga to'xtalib shunday yozadi: "Tasavvuf istilohlari lug'atida bu so'zga "Ichmoq; ichadigan joy, chashma; tabiat, fitrat. "Tasavvuf" yoki "malomat" aslida bir mashrabdir. Yashash tarzi, his etish, unga binoan ish tutish ma'nosi ham bor", degan izoh uchraydi. Demak, bu taxallusni shoir Boborahim tasavvuf yo'lga kirgandan keyin olgan. Manbalarda "Mashrab" taxallusini Ofoqxo'ja bergan deyiladi. "Mashrab – ilohiy sharobdan sarxush degani", deb yozadi tasavvufshunos olim N.Komilov. Nima bo'lganda ham, bu taxallus uning ona qornida gapirish hodisasi bilan bog'liq emas"[2, 199] deya ta'kidlaydi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Asarda Mashrabning ustozı Mulla Bozor oxundga e'tiqodi baland, o'z navbatida uning shogirdi iste'dodiga ham yuqori baho berishi keng tasvirlanadi. Romanda Mulla Bozor Oxund "ko'zi to'q", haqqo'y, bilimdon ustoz sifatida talqinini topadi. Uning shogirdlari kambag'al oiladan bo'lgan ilmga tashna Mashrab bilan boy oiladan bo'lgan axloqsiz Ergashga bo'lgan munosabatida ko'zga tashlanadi.

Mashrabning imlosi chiroyli, qiroati yoqimli bo'lgani bois Bozor Oxundning masjidi Jome'da o'zi bilan birga Qur'on oyatlarini o'qishga tayyorlashida ko'rinadi. Qur'on oyatlarini chiroyli ovozda qiroat bilan o'qiyotgan o'g'lining masjid to'risida o'tirganidan g'urur va iftixor tuygan Valibobo kechinmalari romanda chuqur yoritilgan. Tavoreh tugagach, masjididan ko'tarinki kayfiyatda qaytayotgan ota-bola holati hamda kelgusida Mashrab taqdirida kechadigan ko'ngilsizliklar tabiat tasviri orqali quyidagicha ifodalanadi: "Osmon tiniq, Yulduzlar chamani to'kis, yaqin yulduzlar charaqlaydi. Lekin osmonni birgina qalin bulut bosib kelardi" [1,623].

Mashrab Arzigul daragini tasodifan yo'liqqan yo'lovchi kampir orqali uning To'ti kampirning qizi ekanini, Chorsudagi Xayri otin qo'lida tahsil olishini bilib oladi. Romanning "Visol onlari" bo'limida ilk sevgiga giriftor Mashrab, ushbu tuyg'u og'ushidagi Arzigul kechinmalari hayotiy ifodasini topadi. Bobur ijodining bilimdoni, o'qimishli Arzigul qiyofasi asarda ishonarli talqinini topgan. Romanda Mashrab kechinmalari ifodasida uning g'azallaridan ham berib borilishi ta'sirchan ifoda va hayotiy talqinlarni, xarakterlar tasviridagi jonlanishni yuzaga keltirgan. Romanda yozuvchi Mashrab va Arzigul o'rtasidagi ilk sevgi tasviri vositasida otashqalb ijodkorning Qashqarga Ofoqxo'ja eshon dargohiga yo'l olishning sababchisi shu ekanligiga urg'u bermoqchi bo'ladi. Ushbu o'rinda tarixiy qissa va boshqa manbalarda tasvirlanganidek Mashrabning sevgilisi uyg'ur qizi bo'lmay, balki namanganlik o'zbek qizi ekanligini tasvirlash orqali yozuvchi badiiy to'qimadan samarali foydalanib syujet rivojidadagi mantiqiy asosni yuzaga chiqarishga erishmoqchi bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bu badiiy haqiqat o'quvchini ishontiradi, albatta. Yozuvchi xalq kitoblari, tarixiy manbalar hamda shoir asarlarida uch ko'rsatgan tarixiy haqiqatga asoslangani holda voqelik yaratishga harakat qiladi. Mashrabning bolalik davridagi kitobga, ilmga bo'lgan baland ixlosini, ota-onasiga, ayniqsa, ustozı Mulla Bozor Oxundga bo'lgan ulkan hurmatini tasvirlashda tarixiy haqiqatga amal qilishga intiladi. Ayniqsa, Mulla Bozor Oxundning ustoz va el-yurtning hurmatini qozongan shaxs sifatidagi qiyofasini tasvirlashda uning nutqida xalq ibora va maqollaridan samarali foydalanish orqali erishadi. Umuman, Shuhratning "Mashrab" romani tugallanmagan bo'lsa-da, avliyosifat shoir hayotining bir qismini o'zida muayyan darajada aks ettirgan asar sifatida alohida qimmatga egadir.

Xayriddin Begmatovning "Devona Mashrab" [3] romanida esa Boborahim Mashrabning 6-7 yoshlaridan boshlab Ubaydullo Bozor oxund qo'lida tahsil olib, nizolar tufayli Koshg'arga Ofoqxo'ja eshon dargohiga yo'l olishi tasvirlangan. Mashrabning To'tiniso ismli Ofoqxo'ja eshonga nazr qilingan uyg'ur qiziga ishqiy tushishi, bu qilmishi uchun ayovsiz jazolanishi, so'ng qalandarlikni ixtiyor etib, shaharma-shahar darbadar kezishi, oxir-oqibat Mahmud Qatag'on buyrug'i bilan dorga tortilish voqealari asarda keng tasvirlangan. Yuzlab personajlar ishtirokidagi romanda davr kartinasi, turli xarakterlar, tasavvurning "qolu hol" ilmi, qalandariya va malomatiya tariqatlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Roman voqealari Namanganning kosiblar mahallasi bilan tutash Maddaxon mahallasida ikki musofir otliqlar bilan qalandarlar o'rtasida bo'lib o'tgan mojaro va bu voqealarni 6-7 yoshdagi bolakay kuzatib turganligi, u esa usta Valibobo o'g'li Boborahim ekani tasviri bilan boshlanadi. Uning keyinchalik qalandar bo'lib yurtma-yurt kezishi, bolalikdan qalandarlar to'dasiga qiziqishi, ular takrorlagan Yassaviy hikmatlari ta'siri borligini shu tariqa yozuvchi tasvirlab asoslaydi.

Romanda xarakterlar talqinidagi ta'sirchanlikni ta'minlash uchun portret va peyzaj tasvirlaridan yozuvchi unumli foydalanadi. Bu esa biri ikkinchisiga o'xshamagan xilma-xil qiyofalarning betakror tasvirini yuzaga keltiradi. Boborahim bilan ilk bora uchrashgan Bozor oxund va uning sheriklari qiyofalari quyidagicha aks etadi: "Keluvchilarning yoshi ulug'rog'i mudarris Ubaydillo Bozor bo'lib, el orasida "Bozor oxund" nomi bilan mashhur, hamrohlari "mullo Vali Xo'jandiy" va "Maymoq so'fi" otliq kishilar. Yoshi o'ttizlardan oshgan uzun bo'lyli, to'la gavdali, keng peshonali, xushro'y yuzli Bozor oxund oq simobiy salla, egnida qalami gulli yaktak, oyog'ida yengil maxsi – kovush. Surma qo'ygan kabi qora ko'zlarida ajib nur, chiroyli kuzalgan qop-qora soqolmo'ylabi yog' surtgan kabi yaltiraydi. Xalifalari ham unga taqlid kiyinishgan. Xo'jandiy oxund taqlid

uzun bo'yli kishi bo'lib, yigirma-yigirma besh yoshlar atrofida. Bola bilan ovora bo'lmoqda bo'lgan mullo esa o'ttiz yoshlar atrofidagi o'rta bo'yli, qorindor, shoshqaloq harakatli salobatsiz bir kishi. Uning ismi Aymoq maxsum bo'lib o'ng oyog'ini tashlab yurgani uchunmi, el orasida "Maymoq so'fi" laqabi bilan mashhur" [3,6-7].

Ayniqsa, romanda Boborahimning bolaligida kechgan voqealar, uning do'stlari: Abduqodir, Sharif, Salim bilan bo'lib o'tgan qiziqarli hodisalar maroq bilan tasvirlangan. Shoirning bolalikdagi "qalandar-qalandar" o'yinlari tasviri orqali uning qalandar to'dasiga bosh bo'lishi bejiz emasligi asoslanadi. Boborahimning og'ziga qamish olib, ko'lga sho'ng'ib "Ilonzor" deb nomlangan qamishzor ichida uzoq vaqt yo'q bo'lib ketishi, bu holdan o'rtoqlarining vahimaga tushishlari xalq qissalaridagi tasviridan ko'ra realistik uslubda talqini bilan ajralib turadi. Valibobo o'g'lining o'zi singari kosib bo'lishini hohlamasa, Bibi Salima esa yolg'iz farzandini go'yanda bo'lib qalandarlar bilan darbadar izg'ishini aslo hohlamasligi ifodasi ham haqiqatga yaqin talqin etilgandir.

Romanda Boborahim bilan Mulla Bozor Oxund fikrlarida ayirma Aymoq so'fi bilan bo'lgan mojaro fonida yuz beradi. Asardagi Aymoq so'fi fikri sayoz, lekin o'zini bilimdon qilib ko'rsatuvchi shaxs. Bozor Oxund ham malomatiya tariqatiga mansub Mansur Halloj qarashlarini kabza qila olmaydi. Boborahim esa ushbu tariqatning tarafdori. Asarda bu quyidagicha tasvirlanadi: "... Menlik lofini umak Ollohga sheriklik da'vosidir. Unutmag'aysizkim, "La ilaha illallohu, la sharika lahu". Bu so'z bilan Ziyoviddin Ishaq gunohkorlarcha bosh egdi. – Uzi, ustoz! – deya ko'zlari chaqnab Bozor oxundga qadaldi Boborahim. – Anda Simurg'din maqsud ne erur?" [3,46]. Munozaradagi keskinlik asar voqealari davomida yanada ortadi: "Bozor oxund unga to'rtko'z bo'la tiklanib qoldi, ammo ustoz holatiga bee'tibor Boborahim jilmayganicha davom etdi. – Men Mansur Hallojni hayrat maqomida ko'raman, ustoz. – "Ne deysiz?" degan kabi ishora etdi u".

To'g'ri topibsiz, bo'tam! Ul shayx faqru fano maqomiga yeta bilmagan ko'rinur!

Andin ortiq faqru fano bo'lg'aymu, hazratim!

Bas? – siltab dedi Bozor oxund.

Nechun tilimni kesasiz, ustoz! – deya qo'llarini ko'ksiga qo'ydi Boborahim... Mir hazratlari bul ma'noda zohiran Hallojg'a rad badal aytsalar-da, botin savdosi birla anga uvays ko'rinur!

Kofir bo'lubsen! – shiddat bilan boshlarini ko'tarib dedi Bozor oxund. Ahli davra silkinib tushdi" [3,46-47].

Romanda Boborahim bilan munozaradan keyingi Bozor oxund fikrlaridagi parokandalik, kechinmalaridagi ichki qarama-qarshiliklar chuqur yoritilgan. Bozor oxund harakteridagi jihatlar-adolattalab, haqqo'y, qo'rqqmasligi uning Buxoroga borib Abdulazizxon huzurida qat'iy tanlov asosida ko'rikdan o'tishdagi voqealarda talqin etilgan.

Bozor oxundga Mashrabning bahosi quyidagicha: "Ustoz bebaholar!" – deb xayolan so'zlana boshlaydi u. – Ul xazratning qalblari oina kabi tozadur. Muloqotda bola misoli sodda va beg'ubordurlar. Ilmda tengsiz misoli behad, ijodda ersa... Tovba! Nega jilovlanurlar?! Zohidsifatlik muborak dillariga soya tashlamish. Ovozlar – mahdud, ixtiyorlari – maqsur. Yayramaydurlar, kimsadan qo'rqqan kabi" [3,51]. Shuningdek, u bu dunyo molidan qo'l tortgan, "hovli-joy tutmoqda, qo'sha ot-ulov yasamoqda, intihosiz bazmu jamshidlar tuzib, ulfatlar to'plamoqda, xullaski, dunyo yig'imoqda qosir edi".

Romanda tasvirlanishicha Dahbediy tomonidan "Bulbul qafasda sayramag'ay! Qushni ozod qo'ymoq va don sepmak lozim. Yigitcha hanuz yosh erkanlar. Yosh tan tolxipchin kabi egilur. Nazarimda, ani hidoyat yo'linga boshlaguvchi bir ustoz kerak! Koshg'ar – shoirlar maskani, buyuk og'amiz Hidoyatullo Ofoqxo'jam hazratlari ersa piri komildurlar!" [3,64] degan so'zlari Mashrabni Namangandan ketishi uchun ilk turtki beradi. Ikkinchi voqea esa Boborahimning bolaligida otasi bilan bigalikda ko'rgan voqeasi sabab bo'lgan edi. Otasi rahmatlik ushbu eshonni "Koshg'ariy xo'jam" deb tanishtirgan edi.

"Ilmi hol" egasi bo'lgan ushbu eshon besh kunlik dunyo, ularning o'tkinchiligi, mol dunyoning bevafoqligi haqida so'zlayotganida bir boyvachcha yigit uning so'zlariga quloq solmoqdan keta boshlaydi. Shunda vaz aytayotgan eshon "Ilmi hol" bilan ortga qaytarib o'z izmiga bo'ysundirdi. Ofoqxo'ja buyrug'i asosida yigit suvoriy holatiga kirib harakatlar qila boshladi. Boborahim ushbu voqeani do'stlari Sitoriy va Ziyoviddin Ishaqqa so'zlab berganda ular o'rtasida munozara bo'ladi. Sitoriy "Hidoyatullo Ofoqxo'ja sohibi karomat" desa, Ziyoviddin Ishaq "Ofoqxo'ja eshon jodugardur!" degan fikrda, Boborahim "Ofoqxo'ja hazratlari ilmi hol egasidurlar" desa, Bog'istoniy "O'qib

ADABIYOTSHUNOSLIK

o'rganmoq birla muyassar bo'ladurgon ilmi qol – ilmi ayndur!" deydi. Boborahim "Hol ahlini "sohibi ilmi g'ayb" derlar" deya baholasa Bog'istoniy "Fol ko'rmoq, jodu etmoq ilmi hol ham, ilmi g'ayb ham emas, shariatda qatag'on" deya ta'kidlaydi.

Boborahimning "noshariy she'rlari" uchun Namangan bekligi qarorgohiga chaqirib bek tomonidan tergov qilinishi, Aymoq so'fi bu borada xabarchi bo'lishi, shoirning Koshg'ar tomon yo'l olish istagini yanada kuchaytirdi. U Bozor oxundni o'z ortidan Aymoq so'fini ayg'oqchi etib qo'yishda ayblaydi. Bozor oxund ham o'z navbatida buning johilligidan, bilimsizligidan, Mashrabni Namangandan badarg'a etish hukmidan norozi bo'ldi. Mashrab onasi Bibi Salima, singlisi Guli Zebo bilan hayrlashib, Bozor oxundning "Sargashta yurmak balkim dil o'tingizni tez etar, illo farog'at ko'rmagaysiz! Sariq ilon ko'p yuvvosh ko'rinur. Ani yodingizdan faromush etmang o'g'lim!" deya qilgan iltijolariga quloq tutmay karvonga qo'shilib do'sti Setoriy bilan Koshg'arga tomon yo'l oldi.

Romanning ikkinchi bo'limi Mashrabning Koshg'ardagi hayotiga bag'ishlangan. Unda shaharning XVII asrdagi manzarasi quyidagicha aksini topgan: "Koshg'ar Namangondan o'n chandon gavjum shahar edi. Qurama tilida so'zlashuvchi turfa olamon shahar ko'chalarini to'ldirib o'tib turar, Boborahim ular suhbatiga olazarak quloq tutib bormoqda edi. Uning diliga qirg'izlarning ehtirosli so'zi o'tirib tushsa, olis Xorazm elining yumshoq lahjasi quloqlarida begonaday, tund va badjahl qiyofali qalmoqlar lafzidan hech narsa ajratib ololmas, yerli xalqning chuchuk Koshg'ariy shevasi esa yuragiga yaqin va qadrdon edi" [3,79].

Boborahimning Ofoqxo'ja eshon bilan uchrashuvi juma kuni erta tongda ro'y beradi. U Boborahim bilan Setoriyga zoxir ko'zlarini yumib, botin ko'zlarini ochishni buyuradi. Lekin ushbu holda Boborahim xudlik va bexudlik orasida bezovta bo'lib tursa, Setoriy "Ofoqxo'ja qo'llari barobar oldinga egilib, bor vujudi bilan titramoqqa tush"gan edi. Boborahim "Balkim suluki Ishqiyo anjumaninga qabul imtihonidur ul?" deya xayolidan kechiradi: – Dilingda g'ubor bor, yigit! – deya engashgan ko'yi Boborahim ko'zlariga tikilib gap boshladi u (Ofoqxo'ja eshon nazarda tutilmoqda – M.X). – Ul g'ubordin isyon urug'i unar. Sarkash odating tobelik iplarini uzur. Birini tanlagaysen, YO ixlosu itoat, yo o'zga bir dargoh yo'lini tutmak! Murid va murshid aro o'zga tariqat yo'qdur!" [3,83] Nihoyat e'tiqod bo'yrasiga o'tqazilgan Boborahim va Setoriy ishqiy anjumanining o'ziga xos "qabul imtihoni" dan o'tishgach, qasam o'qib, Ofoqxo'janing muridiga aylandilar. Boborahim Ofoqxo'janing kenja xotini xonim Poshsha izmidagi qizlaridan biri To'tinisoni sevib qoladi. To'tiniso ham unga ko'ngli borlini oshkor etadi.

Ofoqxo'ja huzurida uning muridlari bilan birga suluk, tariqat to'g'risidagi suhbat – munozaralar asarda keng tasvirlangan. Yozuvchining tasavvuf ta'limoti haqida keng bilimga ega ekanligi yaqqol sezilib turadi.

Mashrabning yurak sirlaridan xabardor Setoriy tog'asi Tanburiydan otalik qilishni, Ofoqxo'jadan shoirga To'tinisoni "so'rab berishi"ni iltimos qiladi. Tanburiy bilan suhbatdan keyingi Ofoqxo'janing kechinmalari ko'zgduday aks etadi: "Ul ne holat, – deb muroqabaga bormoqda edi eshon, – murid meniki bo'lsa-yu, aning asrori dili birla o'zga bir sozanda oshno ersa! Otasi tengi bir mashshoq ash'orni sozga olib, xizmatiga mute tursa. Farzandlik maqomiga qabul aylab, istiqboli qayg'usini cheksa! Mendek bir zoti sharif xonadonimga qadam bosmak andishasini qilmay, elchi bo'la kelib, kanizak tilamak qaror bersa!" [3,136] Shu bilan birga Ofoqxo'ja eshon Mashrab jasoratiga ham qoyil qoladi: "Ul qanday qudrat erurki, mendek suluk e'lon etgan shayx farmoniga tobe bandalar ko'ngul tilagan on sukutda tursalaru, yalangayoq bir shoir do'stlari har lahza himoyat bo'la chiqib aning uchun maydon aro jangu jadalga kirsalar!

YO qudratli egam! Onqadar shonu shavkat berding, karamingga shukr! Boz ne bo'lur erdiki, ul turki shakkokka bermish quvvai so'z qudratingdan bir zarrasini bul sodiq qulinggi ham ato etsang!" [3,136]

Dastlab Ofoqxo'ja ota bo'lib ikkisini boshini silagani, shu orqali asov tulpor – Mashrabni jilovlab olishni xayol qiladi. Lekin voqealarning keyingi rivoji uning rejalarini butunlay o'zgartirib yuboradi. Bunga Mashrabning Gumnom va Ofoqxo'jani tanqid qilgan g'azalning shoir daftarini orqali Bilolbey tomonidan o'g'irlanib oshkor etilishi sabab bo'ladi. Ofoqxo'ja buyrug'i bilan daftar gulxanga tashlanadi, Mashrabni yigirma darra uriladi. Setoriy esa bir oyga zindonband etiladi. Uni zindondan ozod etish uchun Mashrab xonaqoh maydonida el ko'zida "kufrona" shoirlardan voz kechishi, Ofoqxo'jaga yukinib tavba qilishi kerak edi. Shuningdek, bu yo'lda eshon To'tinisoni ham vositachi

qiladi. Romanda qahramonlar o'rtasidagi konfliktning eng yuqori nuqtasi shunday tasvirlanadi: "Ofoqxo'janing g'olibona jilmayib turishi bilan Mashrab qaysarlandi. Dunyoda eng og'ir ish el e'tiqod qo'yib turgan bir maydonda yolg'onni fosh etmoqdir. Yo'q, garchi she'riyatda "devona" atalgani bilan Mashrab telba emas edi. U bir qadamdan so'ng orqaga qaytib bo'lmasligini ham bilar, bu qadam ostida ne-ne sho'rishu to'fonlar to'zg'imog'ini ham balki tasavvur etar, ammo bo'lar ish bo'lib, karvon suvdan o'tgan: yo'llar boshqa-boshqa edi" [3,171-172].

Mashrab Ofoqxo'jaga "Olloh taolo – vujudi vohid" ekani, iqtido vujudga lozimligi, o'zga bir olam uning soyasi ekanligini aytadi. Bandalarga yukinmaklik g'ayri sha'riylikini, Imom G'azzoliy "Vajdu tarab – yig'i, kulgu, raqs, har qachon beixtiyoriy bo'lsa muboq, e'tibor talab bo'lsa xarom" deganini aytib, siz johilsiz deydi. Mashrabning kamolot poklik va rostlik bilan ekani haqidagi falsafiy fikrlariga Ofoqxo'ja javob topolmaydi. Eshon bir muddat Mashrab va uning sheriklarini jazolashdan tiyladi. Mashrabni Mansur maqomiga yetgan hisoblab, avval erkiga qarab, so'ng don sepmakni, zino qo'llarini urib jazolamakni diliga tugadi. Bilolbey boshchiligidagi soqchilar Mashrab va To'tinisoni uchrashib turgan paytlarida xibs etadilar. Ofoqxo'ja Mashrabga "Sen avom ko'zinda sirri nihonni oshkor etding! Faqir seni andoq jazoga buyurgaymanki, zinhor-bazinhor o'z sirri nihoningni kimsaga oshkora eta bilmagaysen" [3,182] deya jazolashga buyuradi.

Romanning "Qalandarlik" deb nomlangan uchinchi bo'limi voqealari Mashrabning hastalik to'shagidan turganiga bir yilcha bo'lgani hamda qalandariya tariqatini qabul etganligi bilan boshlanadi. Gado qalandarlik, mehnatsiz luqma bilan yashovchi hayot, qo'sqi yurmoqliklar Mashrabga yoqmasligi, samo' bazm aro Olloh vasliga yetmoq maqomini aslo hazm eta olmasligi ta'kidlanadi. Romanda xalq qissalaridagi uyg'ur dehqon bilan bo'lgan voqea, Quntojixonning erka qizi Oppoqoyim bilan ba'zi voqealar o'ziga xos tasvirini topgan. Mashrabning So'fi Olloyor, G'ulomiddin maxsum bilan munozaralari keng berilgan. Qalandariya ta'limoti talablari Mashrab nutqi vositasida ifodalangan.

Mashrab Balx hukmdori Mahmudbey bilan bo'lgan munozarada Ofoqxo'ja eshonning "Mening kushandam Yusuf Qorabog'iy, sening kushandang esa Balxda Mahmudbey Qatag'ondu!" degan so'zlarini yodga oladi. Uning "Eshon bashorati kelmay qolmas!" degan xayol bilan titrab ketishi xarakter talqinidagi hayotiylik va haqqoniylikni yuzaga keltirgan. Asar syujetiga nasroniylar rahnamosi ota Stefan Geverg obrazi "O'zini haq deya biluvchi bandalar uchun... millatda ham, dinda ham, mahzabda ham farq bo'lmas!" degan fikrni asoslash uchun kiritilgan. Mashrabning Mahmudbey buyrug'i bilan dorga tortilishi manzaralarini aks ettirishda yozuvchining tarixiy manbalardagi tasvirlardan ta'sirlanganligi sezilib turadi.

Roman so'ngso'zida Pirmat Setoriyning Mashrabdan sakkiz yil keyin oltmish yoshlarda Andijonda vafot etganligi, Ziyoviddin Ishoq Bog'istoniyga shoir vafoti sarguzashtlarini so'zlab berganligini, shu tariqa "Taxkirai qalandaron", "Devonai Mashrab" kitoblari maydonga kelganligi bayon etiladi. Yozuvchi "Yoshi yetmish birga kirgan bandai raddi falak" misrasi Mashrab qalamiga mansub ekanligini ta'kidlaydi. Mashrabning yoshini ellik sakkiz sana deb belgilagan Ziyoviddin Ishoq so'zlarini haqiqat deb biladi.

XULOSA

O'zbek tarixiy romanlarining namunalaridan biri bo'lgan X.Begmatovning "Devona Mashrab" romani Mashrab obraziga xos jihatlarni ushbu janr talablari asosida keng aks ettirgan asar sifatida xarakterlidir. Shuningdek, asar qahramonlari nutqida tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq ilmiy istiloh va fikrlar biroz ko'payib ketgandek tuyuladi. Bu esa qahramon va personajlar ichki dunyosi, kechinmalarining chuqur talqiniga biroz monelik qilgandek taassurot qoldiradi. Muallif bayonida esa ba'zi qahramonlar talqinidagi salbiylikni kuchaytirish uchun ba'zan o'z nomlari, ba'zan laqablarini qo'llash uchraydiki, bu sun'iy tasvirni yuzaga keltirgan ham. Lekin u Boborahim Mashrab obrazini tarixiy manbalar asosida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligida keng aks ettirgan asar sifatida qadrlidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шухрат. Машраб. Роман // Танланган асарлар. – Тошкент: "SHARQ" нашриёти матбаа акциядорлик компанияси, 2018.
2. Дўсқораев Б. Ўзбек насрида Машраб тимсолини яратиш тажрибаси ҳақида мунозаралар // Мустиқиллик даври адабиёти. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2006.
3. Бегматов Х. Девона Машраб. Роман. – Тошкент: "Шарқ" нашриёти – матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2005.
4. Sabirdinov A. Oybek she'riyatida so'z va obraz. – Toshkent: "Akademnashr", 2010.